

PAPER

BADIIY MATNDAGI ANTROPONIMLARNING TARJIMASI XUSUSIDA

Ismailov O' sarjon Usubjonovich^{1,*}

¹Namangan davlat texnika universiteti

*usarjoni@gmail.com

Abstract

Maqolada badiiy matndagi antroponimlar tarjimasining murakkab jihatlari yoritilgan. Muallif ismlarning tarjima qilishda turli yondashuvlarni, jumladan transliteratsiya, transkripsiya va kalka tarjima usullarini tahlil qiladi, shuningdek, tarjima usulini tanlashda madaniy, tarixiy va stilistik omillarning ta' sirini ko' rib chiqadi. Maqolada, shuningdek, ismlarni tarjima qilish qahramonlar haqidagi tasavvurni va ularning o' quvchi uchun ahamiyatini qanday o' zgartirishi ko' rib chiqiladi. Tarjimonning asl matnni ham, maqsadli auditoriyani ham hisobga olishi kerak bo' lgan tarjimon roliga alohida e' tibor beriladi.

Key words: badiiy matn, tarjima, ism, antroponim, transliteratsiya, transkripsiya, kalka

Kirish

“Ismlar tarjima qilinmaydi” –degan tushuncha bizning ongimizga shunchalik chuqur singib ketganki, u haqiqat sifatida qabul qilinadi. Ba' zan, ismlarni tarjima qilish boshqa madaniy muhitda tushunmovchilik yoki noto' g' ri talqin qilishning oldini olish uchun zarur bo'lishi mumkin. Misol uchun, badiiy matnda ma'lum ma'nolarni yoki ramziylikni saqlash muhim bo'lsa, nomlarni tarjima qilish muallifning badiiy niyatini yanada aniqroq e' tkazishga yordam beradi.

Avvalo ismlar, bu –so' zlardir. Ular o' zining tovush qo' big'idan tashqari ko' p narsani o' z ichiga oladi. Ular milliy, tarixiy–madaniy an'analarni, oilaviy qadriyatlarni aks ettirishi va hatto inson taqdirini belgilashi mumkin. Ismlar hayotimiz davomida bizga hamroh bo'lib, o' zligimizning bir qismiga aylanadi va boshqalarning xotirasida iz qoldiradi.

“Ism” nima degan savol tilshunolar va faylasuflarni yuzlab va ming yillar davomida qiziqtirib kelgan. Qadimiy hind vedalari, “Mahabxarata” va “Ramayana”, shuningdek, qadimiy Eron “Avestosi”, qadimiy island she' ri “Eddasi”, finlarning “Kalevalasi” va boshqa bir qator qadimiy mifologik hikoyalarda nomlarga berilgan izohlar va ta' riflar bilan to' la. Ular Gomerning epik she' rlari yoki Vergiliyning “Eneidasi” ga ham xosdir. Yunon–rum tarixchilari ham atoqli otlarning etimologiyasi bilan shug' ullangan. Bunga misol, “Parallel biografiyalar” muallifi Plutarx o' zining deyarli barcha personajlarining nomlarini umumiy

so' zlardan ajratib olishga harakat qiladi. Platonning eramizdan avval taxminan 422–yillarda yozib qoldirgan “Kratil” dialogida faylasuflar (Sokrat, Germogen va Kratil) atoqli otlar borasida qizg' in bahs quradilar. Platon maktabi atoqli ot va shu ot bilan chaqiriladigan obyekt orasidagi bevosita bog' liqlikni ko' ra bilgan, shuningdek atoqli otlar sinfi bilan turdosh otlar sinfini ajrata bilgan.

Bugungi kunda ismlar ya' ni atoqli otlar bilan tilshunoslikning onomastika sohasi shug' ullanadi. Har qanday tildagi atoqli otlar shu tilning onomastik makonini tashkil qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bizga ma' lumki, onomastik nominatsiyaning birinchi obyekti va onomastik makonning markazi bu –insondir. Onimlarning birinchi sinfi antroponimlar bo' lib, ularning tildagi umumiy yig' indisi antroponimiya deb ataladi. Antroponimika esa o' z navbatida antroponimlarni o' rganadi, yunon tilidan tarjima qilinganda *anthropos* –odam va *onyma* –ism, nom ma' nolarini anglatadi.

V.A.Nikonov o' zining “Ищем имя” kitobida “antroponimika” atamasi birinchi bor 1887–yilda portugal tilshunosi J.Leyte Vaskonselva tomonidan kiritilganligini qayd etadi. Shuningdek, V.A.Nikonovning ta' kidlashicha, “har qanday shaxs ismi antroponim, shaxsiy ismlar yig' indisi esa “antroponimiya” deb ataladi. Shaxs ismlarini o' rganish bilan shug' ullanuvchi fanga antroponimika deyiladi” . [1]

Taniqli o'zbek nomshunos olimi E.Begmatov, quyidagi onomastik vositalar o'zbek antroponimiyasining birliklaridir deb ko'rsatgan:

1. Ismlar –konkret shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.

4. O'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari ("qizi" , "o'g'li") yordamida nomlash.

5. Shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarining nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn" , "binni") yordamida.

6. O'tgan asrning 20–30–yillarida rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari" . [2]

N.V. Podolskayaning ta'rif berishicha, "antropoim tushunchasi ostida inson (yoki kishilar guruhi) egalik qilishi mumkin bo'lgan har qanday ism tushuniladi, jumladan, ism, ota ismi, familiya, laqab, taxallus va boshqalar" .[3]

Demak, antropoim keng tushuncha bo'lib, inson dunyoga kelganda unga ota-onasi tomonidan berilgan ismdan boshlab butun umri davomida o'zi yoki o'zgalardan tomonidan berilgan barcha rasmiy va norasmiy shaxsga nom berishning har qanday usulini anglatadi.

Antropoimning vazifasi referentni nomlashdan iborat, lekin unga hech qanday xususiyatni bog'lamaydi, referent haqida hech qanday izoh yoki ma'lumot bermaydi. Har qanday antropoim o'zi belgilab kelgan obyektning konseptual ma'nosiga asoslanadi. Bu ma'no antropoimni farqlash va tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ularning semantik tabiati va tildagi funksional rolini aks ettiradi. Masalan: "Otabek" antropoimi, uning obyekti daryo yoki shahar emas, balki inson ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, uning millati, bu holda o'zbek xalqiga tegishli ekanligidan dalolat beradi va gender o'ziga xosligini ta'kidlaydi, chunki "Otabek" erkak kishiga tegishli ism.

Ilmiy tushunchaning hozirgi holati shundan iboratki, atoqli ot to'laqonli belgi bo'lib, ham denotat, ham signifikatga ega. Atoqli otlarning, xususan, antropoimlarning semantikasini o'rganishda, barcha qiyinchilik referent, denotat va signifikat kabi tushunchalarni turlicha talqin qilishdadir. Tadqiqotimiz doirasida ushbu atamalar quyidagicha talqin qilinadi: "Referent –ma'lum bir nomlash obyekti (ya'ni shu nom yoki ismni tashuvchisi), denotat –bir xil toifadagi obyektlar sinfi, signifikat –differensial, obyektlarning ma'lum bir sinfi uchun eng muhim belgilar yoki ularning yig'indisi" . [4]

Badiiy matndagi antropoimlar murakkab lingvistik vositalar sanalib, badiiy asarning muhim organik elementlari sifatida asarning stilistik foni va muallifning badiiy-estetik g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi.

Xususan, V.A.Nikonov badiiy matndagi antropoimlarning funksional xususiyatlari haqida quyidagicha ta'rif beradi: "Personajning ismi –badiiy obrazni yaratuvchi vositalardan biri bo'lib, u personajning ijtimoiy mansubligini tavsiflashi, milliy va mahalliy koloritni ifodalashi, agarda voqeiylik o'tmishda sodir bo'lgan bo'lsa, tarixiy haqiqatni qayta yaratishi mumkin. (agar ism haqiqatga zid ravishda tanlangan bo'lsa, barbod qilishi mumkin)". [5] Badiiy matnning onomastik qatlami unga yuklatilgan vazifani til va nutq darajasida bajaradi, lekin ularning ayrim jihatlari farq qilishi mumkin, chunki antropoimlar badiiy matnning o'ziga xos kontekstida faoliyat ko'rsatadi. Asar matnida antropoimlar muallif tomonidan belgilangan g'oyaviy-estetik va boshqa vazifalarni bajaradi, bu esa ularning stilistik va boshqa imkoniyatlarini mazmunijihatdan ochib berish zarurligini ko'rsatadi. Asar matnida atoqli ot o'z funksiyasiga ko'ra, semantik makon va matnning tarkibiy elementlaridan biri bo'lib, matnni shakllantirishda muhim konstruktiv va bog'lovchi vazifasini bajarib ketadi. Asarning onomastik qatlami tasodifiy emas, u muallifning badiiy maqsadini o'zida aks ettiradi va uni ochib berishga sezilarli yordam beradi.

Ta'kidlab aytish mumkinki, turli xil ma'nolar bilan to'yingan va assotsiativ bog'lanishlarga ega bo'lgan antropoimlar badiiy

asarning ajralmas komponenti bo'lib, ular o'zida ekstralingvistik ma'lumotlarni mujassam qiladi. Asar kontekstiga unga yuklatilgan vazifasiga ko'ra, atoqli ot o'ziga yangi konnotatsiyalarni olishi mumkin, natijada uning semantik qiymati ortadi, shakli o'zgaradi va tildagi ma'nosidan ancha farq qiluvchi badiiy-estetik ma'noga ega bo'ladi. Bu asar konteksti va ularga yuklatilgan vazifa hamda badiiy-estetik g'oya bilan bog'liq.

O'z navbatida V.M.Kalinkin asar kontekstida atoqli otning konnotativ jihatdan o'sish jarayonini ifodalash uchun "poetonimogenez" atamasidan foydalanadi: "Badiiy asarning poetonimlari, hatto konnotativlari ham, odatiy ma'nolardan tashqari, har doim asar matni bilan bog'liq konnotativ doiraga ega. Bu adabiy onim semantikasining ajralmas qismidir" . [6]

Badiiy matnda atoqli ot asar syujetining rivoji bilan bir maromda ma'lumot to'playdi va u bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni o'zlashtirishda davom etadi. Atoqli ot real ism yoki fiktonim bo'lishidan qat'i nazar, asar kontekstidan olingan konnotativ yoki semantik qiymatini faqat shu asar doirasida oshkor qiladi. Antropoim, muayyan bir jamiyat yoki nutqiy akt ishtirokchilari orasidagina o'zining tashuvchisi bilan bog'lanadi va individuallashadi. Xuddi shuningdek, badiiy matn kontekstidagi antropoim asar syujetining rivoji bilan birga o'sib boradi, ya'ni u o'zining qiyofasiga, xarakteriga, salbiy yoki ijobiy qiymatiga va ijtimoiy maqomga ega bo'ladi.

Badiiy matndagi antropoimlarni tarjima qilishning o'ziga xos muammolari bor. Bu xususan, badiiy matn sharoitida tarjimaga "qarshilik" ko'rsata oladigan "gapiruvchi nomlar" ga taalluqlidir.

Xorijiy adabiyotlarni tarjima qilishda tarjimonlar ko'pincha antropoimlarni to'g'ri tarjima qilish muammosiga duch kelishadi. Muammo birinchidan, ismga yuklatilgan (semantik yuk) ma'noni imkon qadar asliyat matnidagi kabi aniqlik yetkazish bo'lsa, ikkinchidan, ismning ohangdorligidan iborat. Aks holda matnning asliyat tili bilan tanish bo'lmagan o'quvchi ism va familiyaga yashiringan ma'noni yo'qotadi. Masalan: *Chans (omad, omadli), Xevenli (inson zotidan bo'lmagan, pari), Byuti (gozalik, gozal), Noubi (oliyanob, himmatli)* va hokazo. Shuning uchun tarjimon (o'quvchi) asar yozilgan til mamlakatining milliy madaniyati bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Bu borada taniqli o'zbek tarjimonshunos olimi G'aybullas-Salom "Tarjima imkoniyatlari faqat tarjima usulining puxtaligiga emas, balki o'quvchining ham yetukligiga vobastadir. Mukammal tarjima mohir tarjimonningina emas, balki barkamol kitobxonni ham talab qiladi" degan fikrni bildiradi.[7]

Tarjima amaliyotida atoqli otlarni tarjima qilish uchun umumiy qabul qilingan qat'iy qoidalar hali ham mavjud emas. Bunday qoidalarni shakllantirish, ushbu leksik birlikliklarni tarjima qilishning bir qator qarama-qarshi usullari mavjudligi bilan murakkablashadi.

Badiiy matndagi atoqli otning qanday uzatilishi qaroriga bir qator omillar ta'sir qiladi. Shu jumladan:

- maqsadli auditoriya;
- maqsadli til lingvistik normalari;
- matnning yaratilish davri;
- ismning "to'yinganlik" darajasi;
- asar syujeti;
- muallifning badiiy-estetik g'oyasi va boshqalar.

Har bir alohida holat uchun ushbu omillar o'ziga xosdir, badiiy matndagi atoqli otlarni yuqoridagilarning barchasini va boshqa ko'plab omillarni hisobga olgan holda tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Natijalar

Tarjima amaliyotida atoqli otlarni bir tildan ikkinchisiga uzatishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy hol, chunki ism ma'lum bir til hamjamiyatida ma'noga ega bo'lishi mumkin,

ammo maqsadli tilda u ma' nosiz va hech narsani anglatmaydigan ma' nosiz tovushga aylanishi mumkin. Ismlar o'z referentining etnik kelib chiqishi, jinsi, alohida belgilari, shuningdek, lingvistik va madaniy mahsuldorligi haqida ma' lumot berishi mumkinligi bilan muammo yanada murakkablashishi mumkin. Badiiy matn tarjimasining muhim jihati, asliyat matnining madaniy-tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, manba tili madaniyati kontekstidagi ismlarni maqsadli tilga moslashtirishdir. Bunda asar qahramonlarining ismlari o'zak morfemasining semantikasi saqlangan holda uzatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Asar matnidagi antroponimlar, muallifning asar muhitiga va uning har bir qahramoniga nisbatan dunyoqarashini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Ular tilning leksik tizimining bir qismi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarning alohida sinfidir.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tarjimonlar atqoli otlarni tarjima qilishda tarjima tili me'yorlaridan kelib chiqqan holda transkripsiya, transliteratsiya va kalka usullaridan foydalanadilar. Tarjimonning tarjimaning u yoki bu usulini afzal ko'rishi, uning tarjima uslubiga xos xususiyatdir, degan fikrni aytishimiz mumkin.

Yuqoridagi tarjima usullarining o'ziga yarasha kamchiliklari va afzalliklari mavjud. Transliteratsiya orqali tarjimon, antroponimning mazmunini ochib bermasdan faqatgina uning tashqi shakli va evfoniyasini yetkazib beradi, bu esa o'z navbatida retsipyentga antroponimning noto'g'ri talqini yetib borishidan saqlaydi. Transliteratsiyaning kamchiliklarini, retsipyentga notanish bo'lgan antroponimning mazmuni ochib berilmasligi, tarjima tili qoidalariga bo'ysungan holda uning talaffuzi o'zgarishida ko'rishimiz mumkin.

Transkripsiya antroponimning ma'nosini to'liq yetkaza olmaydi, lekin u nomlangan obyekt haqida ba'zi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Masalan mashhur fransiyalik futbol yulduzi hozirda murabbiy Zinedin Yazid Zidan (fr. Zinédine Yazid Zidane, arab. زين الدين زيدان, jazoircha. Zineddin Lyazid Zidan; talaffuz: [zinedin zidan]). Fransiya tug'ilib o'sgan bo'lishiga qaramay, uning ismi sharfidan kelib chiqishi fransuz emasligi ko'rinib turibdi.

Transkripsiya usuli yordamida antroponimlar va realiyalarni chet tiliga uzatish, ularning milliy-madaniy mansubligi va tovush qobig'ini saqlab qolishga imkon beradi. Dunyo tillarining har biri o'ziga xos fonetik xususiyatlarga ega ekanligi, bir tildagi tovushini ikkinchisining tovushi bilan aniq yetkazib berishning har doim ham imkoni bo'lmamasligi transkripsiyaning imkoniyatlarini cheklaydi.

Masalan, ingliz antroponimlarini transkripsiya qilishda qiyinchilik tug'diradigan jihatlardan biri, antroponimlarning grafik shakli va talaffuzidagi sezilarli nomuvofiqligi. Xususan, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan: [θ], [ð] va [æ] fonemalari. Masalan: Agatha (yunon. "yaxshi ayol"), Arthur (kelt. "ayiq"), Theodore (yunon. "xudoning sovg'asi") va boshqalar.

Kalka semantik chuqurlikni saqlab qolish imkonini beradi, to'g'ridan-to'g'ri tarjima esa "gapiruvchi nomlar" va laqablarning muhim jihatlari buzishi yoki yo'qotishi mumkin. "Gapiruvchi nomlar" va laqablar tarjimasining aniqligi va nozikligi muallifning badiiy maqsadi va asar atmosferasini yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Misol tariqasida o'zbek teletomoshabinlariga qator syujetlari bilan tanish bo'lgan "Qarib dengizi qaroqchilari" sarguzasht filmining bosh qahramoni qaroqchi Jack Sparrow. Tarjimada Jek Chittak, Jek –transkripsiya, Chittak –kalka. E'tiborli jihati shundaki, Sparrow, o'zbek tiliga chittak emas, chumchuq deb tarjima qilinadi. Tarjimon nomning estetik –emotsional xarakterini yo'qqa chiqarib butunligicha transkripsiya qilishi yoki Jek Chumchuq deb tarjima qilishi ham mumkin edi. Bu yerda tarjimon "gapiruvchi nomning" evfoniyasi shuningdek emotsional va estetik jihatlari e'tiborga olgan holda chumchuq o'rni chittak ekvivalentidan foydalanadi va retseptorda Jack Sparrow effektini hosil qiladi.

Kalkadan foydalanganda ehtiyot bo'lish va kontekstni hisobga olish muhimdir. Kalkadan haddan ziyod foydalanish ham maqsadli tilda mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu ayniqsa, madaniy jihatdan sezgir metaforalar bilan ishlashda muhimdir, chunki ularning ma'no va mazmuni turli tillarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Muhokama

Tarjimadagi kalka haqiqatan ham asliyat matnning ma'nosini yetkazishda qulay vosita bo'lishi mumkin. Biroq, uni qo'llash manba matnining konteksti va xususiyatlarini sinchkovlik bilan tahlil qilishni talab qiladi. Tarjimaning to'g'riligi va adekvatligini ta'minlash uchun nafaqat leksik va grammatik xususiyatlarni, balki madaniy va stilistik nyuanslarni ham hisobga olish zarur. Kalkadan foydalanish asosli va mazmunli bo'lsagina samarali bo'lishi mumkin. Ma'lum bir vaziyatda kalkani qo'llash bo'yicha asosli qaror qabul qilish uchun, tarjimonning matn tili va madaniyatini chuqur bilishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan esa, boshqa tarjima usullari ham asliyat ma'nosini yetkazish uchun ko'proq mos kelishi mumkin.

Xulosa

Badiiy matndagi antroponimlarni tarjima qilish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy, chunki personaj ismlari o'ziga xos ma'no va ramziy yukga ega bo'lishi mumkin. Antroponimlarni tarjima qilishda quyidagi tamoyillarga amal qilinishi lozim:

1. Ismning semantik yukini va xarakterini saqlash. Antroponimni tarjima qilishda uning semantik yukini saqlab qolish, shuningdek, ushbu nom bilan bog'liq ma'no va assotsiatsiyalarni hisobga olish kerak.
2. Ismni moslashtirish. Agar antroponim asliyat tilida o'ziga xos ma'no noga ega bo'lsa, tarjimon maqsadli tilda shunga o'xshash ma'no yoki ramziylikni olishi kerak.
3. Personaj ismlari orasidagi muvofiqlik. Antroponimlarni tarjima qilishda personajlar orasidagi o'xshash xususiyatlar va munosabatlarni saqlab qolish uchun ismlarning asliyat matnidagi va tarjimadagi muvofiqligiga e'tibor qaratish lozim.
4. Asarning mazmuni va maqsadini tushunish. Antroponimlarni tarjima qilishda uning mazmuni va hissiy ohangdorligini to'g'ri yetkazish uchun asarning mazmuni va maqsadini hisobga olish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Nikonov V.A. Ishem imya. –M.: Sov. Rossiya, 1988. –S. 52.
2. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –B. 11.
3. Podolskaya N.V. Slovar' russkoy onomasticheskoy terminologii. –M.: Nauka, 1978. –S. 31.
4. Alefirenko N.F. Spornye problemy semantiki: Monografiya. –M.: Gnozis, 2005.
5. Nikonov V.A. Imya i obshchestvo / V.A. Nikonov. –M., 1974. –S. 234.
6. Kalinkin V.M. Poetika onima. –Donetsk: Yugo-Vostok, 1999. –S. 181.
7. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Universitetlarning filologiya, jurnalistika, roman-german filologiyasi fakultetlari studentlari uchun qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1978. –B. 108.